

89. Ko'p xonali sonlarni 1 ga ko'paytirish

Yondosh mavzu:
davlat.

Ko'p sonli yig'indi,
1 ga ko'paytirish.




Ortiqcha shaklni toping.



1. Diyorada turli mamlakatlar fotosuratlarini tushirilgan kartochkalar bor. To'plamda har birida bitta mamlakatning fotosuratlarini bo'lgan 7 ta kartochka bor. Bu to'plamda hammasi bo'lib nechta mamlakat bor?

2. Bu to'g'ri to'rburchakni daftaringizda yasang va uni tomoni 1 cm bo'lgan kvadratlarga bo'ling. To'g'ri to'rburchakning yuzi nimaga teng?



3. Ko'p sonli qo'shishni ko'paytirish bilan almashtiring. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

$$1 + 1 + 1 + 1 + 1$$

$$1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1$$

$$1 + 1 + 1$$

$$1 + 1 + 1 + 1$$

Sonni 1 ga ko'paytirganda aynan o'sha sonning o'zi hosil bo'ladi.

$$a \cdot 1 = 1 \cdot a = a$$

4. Hisoblang.

$$7 \cdot 1$$

$$1 \cdot 3$$

$$8 \cdot 1$$

$$1 \cdot 9$$

5. Noma'lumning shunday qiymatini tanlangki, natijada to'g'ri tenglik hosil bo'lsin.

$$x \cdot 1 = 6$$

$$1 \cdot y = 31$$

$$t \cdot 553 = 553$$

89. Ko'p xonali sonlarni 1 ga ko'paytirish



6. Sinf soatida ayrim o'quvchilarga to'qqizta turli davlat haqida ma'ruza tayyorlash topshirig'i berildi. Har bir ma'ruzachi bir davlat haqida gapiradi. Hammasi bo'lib necha kishi ma'ruza o'qiydi?



7. Harflar o'rniga mos qiymatlarni qo'yib, qolgan ifodalarni qulay usul bilan hisoblang. Oxirgi ifodadan hozirgi kunda dunyoda nechta davlat mavjud ekanini bilish mumkin.

$$A = 47 + 29 + 53 + 30$$

$$B = 265 + A + 41 + 35 + 27$$

$$D = B - (190 + 127)$$

$$E = 756 - (256 + D)$$

$$F = (E + 364) - 144$$

$$G = (530 + 174) - F$$



8. 27-yanvarda o'qituvchi bir haftadan keyin sinfda "Davlatlar" mavzusida ochiq dars bo'lishini e'lon qildi. Ochiq dars qaysi sanaga belgilangan.



9. Taqqoslang.

$$5 \cdot 1 \square 1 \cdot 6$$

$$3 \cdot 1 \square 1 \cdot 8$$

$$1 \cdot 7 \square 2 \cdot 1$$



10. Yevropada bu davlatni Yegipet deb atashadi. Hisoblang va shu davlat fuqarolarining o'zlari o'z davlatlarini qanday atashlarini bilib oling.

$$A \ 586 + 37 + 114 + 63$$

$$M \ 173 + 89 + 11 + 27$$

$$I \ 760 - (160 + 202)$$

$$R \ 845 - (329 + 445)$$

$$O \ (478 + 228) - 278$$

$$S \ (139 + 656) - 556$$

300

398

239

71



11. Viktorinada Akbar 18 ta davlatni topdi, bu Doniyor topganidan 13 ta ko'p va Ibrohim topganidan esa 4 ta kam. Har bir bola nechta davlatni topgan?